

6-DARS




**Медиа
сабақ**

MAVZU:

**OAV MATERIALLARINI
TANQIDIY TAHLIL QILISH**

FITNA

Медиа
сабак



USHBU MATERIALNI KO'RIB CHIQIB QANDAY XULOSAGA KELDINGIZ?

QIRG'IZISTONDAGI O'SMIRLARNING AKSARIYATI JINOYATGA MOYIL DEGAN
TAASSUROT PAYDO BO'LDIMI?

LAVHA BOSHIDA KO'RSATILGAN O'YIN KLUBIDAGI O'SMIRLAR SIZDA QANDAY
TAASSUROT QOLDIRDI?

BU O'SMIRLAR HAQIDA QANDAYDIR FIKRGA BORISHGA SIZNI NIMA
MAJBUR QILDI?

1. Bu material nima haqida?

-Material qanday hodisa haqida hikoya qiladi?

-“nima sodir bo'ldi?”, “qayerda sodir bo'ldi?”,

“qachon sodir bo'ldi”, “nima uchun bu narsa sodir bo'ldi

(bunday hodisa sodir bo'lishinig kelib

chiqish sabablari?” kabi savollarga

javoblar bormi?



2. Material qahramonlari kimlar?

Materialni tayyorlash uchun kimning intervyularidan foydalanilgan? Ular ushbu material hikoya qilayotgan hodisaga bevosita guvoh bo'lishganmi?



3. Hodisaning barcha ishtirokchilariga o'z nuqtai nazarini yoki fikrini bayon qilishga imkon berilganmi?



4. Bu lavhani to'ldirish uchun yana kimlardan intervyu olinishi kerak edi?

Lavhada yana qanday qo'shimcha ma'lumotlar yoritilishi kerak edi?



5. Faktlar fikrlardan ajratib ko'rsatilganmi?

Fakt qatori taqdim etilgan fikrlar ham bormi?

Agar bor bo'lsa, misollar keltiring



6. Journalist foydalangan nutqda nafratni yoki his-tuyg'uga asoslangan ifodani bildiruvchi so'zlar mavjudmi? Agar bor bo'lsa, ular salbiy ma'no beradimi yoki ijobiy?



7. Xulosalar:

- Ma'lumot to'liq shaklda taqim etilganmi?
- Material ob'ektivlikka asoslanganmi?
- Materialda masala har tarafdin teng qaralganmi?



Xulosa

- # Har bir OAVning o'z manfaati bo'lishi mumkin
- # OAV sifatli va sifatsiz materiallarni taqdim qilishi mumkin.
- # Bu birgina OAV manbasiga tegishli bo'lishi mumkin, ya'ni o'sha birgina OAV sifatli kontentni taqdim etishi yoki noprofessional, teng qaralmagan materialni ham chop etishi mumkin.
- # Manipulyatsiya qurboniga aylanmaslik uchun materialga nisbatan albatta savollar berib ko'rish kerak.